

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Pedagogika va psixologiya fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Ultrabinafsha nurlaridan jismoniy tarbiya va sport sohasida foydalanish texnologiyasini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha foydalanilayotgan sport zallari va suzish havzalarining umumiy gigiyenik holatini laboratoriya tahlili orqali aniqlanadi; - olimpiya va paralimpiya sport turlari bilan shug'ullanadigan trenerlar, uslubchi-yo'riqchilari uchun Ultrabinafsha nurlaridan jismoniy tarbiya va sport sohasida foydalanish texnologiyasi yo'riqnomasi ishlab chiqiladi; - sport zallaridagi mavjud sport jihozlari va anjomlarining gigiyenik holati hamda sport inshootlaridagi havoning tarkibida mavjud bo'lgan turli gazlar bo'yicha tekshiruvlar o'tkaziladi; - ultrabinafsha nurlaridan jismoniy tarbiya va sport sohasida foydalanish texnologiyasini ommaviylashtirish, sportchilarni tayyorlashda gigiyenik sog'lom muhit yaratish, umumiy va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish tizimini yo'lga qo'yish uchun ilmiy asoslantirilgan texnologiya yaratish. - ultrabinafsha nurlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy yo'riqnomalar ishlab chiqish. - ilmiy asoslantirilgan ijtimoiy videorolik yaratish. - olimpiya va paralimpiya sport turlarida sport zallarning qaysi sport turiga ixtisoslashganligi va qaysi tasnif bo'yicha sport mashg'ulotlari va musobaqalari o'tkazish mumkinligi aniqlanadi. Natijalarni sinovdan o'tkazish. Tadqiqot natijalari Sport vazirligining tizim tashkilotlarida sinovlardan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Sport vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma'lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sport vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.